**Dastlabki ma’lumotlar**

# 2020– yilning yanvar– dekabr oylarida Xorazm viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020– yilning yanvar– dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 16 778,6 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar– 16 300,8 mlrd. so‘mni (102,1 %), o‘rmon xo‘jaligi–127,2 mlrd. so‘mni (101,6 %), baliqchilik xo‘jaligi– 350,6 mlrd. so‘mni (159,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Xorazm viloyatining ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.




**16 778,6** — **Xorazmviloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m**

01 — **16 300,8** — **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

02 — **127,2** — **O‘rmon xo‘jaligi**

03 — **350,6** — **Baliqchilik xo‘jaligi**

## Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining oʻsish surʼati




## Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi(%)




- Oʻrmon xoʻjaligi
- Baliqchilik xoʻjaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xoʻjaligi sohasidagi xizmatlar

2020– yilning yanvar– dekabr yakunlariga koʻra, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,1 % i– dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar,0,8 % i– oʻrmon xoʻjaligi,2,1 % i– baliqchilik xoʻjaligi hissasiga toʻgʻri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2020– yilning yanvar– dekabr oylarida,shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Urganch (2 005 mlrd. soʻm) va Xonqa (1 797 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xiva (52 mlrd. soʻm), Urganch shaharlari (422 mlrd. soʻm) va Tuproqqal’a tumanini (419 mlrd. soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

Viloyat koʻrsatkichidan (103,0 %) yuqori oʻsish sur’atlari Yangiariq (106,6 %), Gurlan tumani(104,1 %), Bog`ot (103,9%) tumanida kuzatildi. Urganch shahri (99,0 %), Tuproqqal`a (99,6 %) tumanlarida esa aksincha oʻsish sur’atlari pastligi kuzatildi.

# Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2020– yilning yanvar– dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 16 180,1 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari–7 283,2 mlrd. so‘mni (101,9 %),chorvachilik mahsulotlari– 8 896,9mlrd. so‘mni (101,9 %) tashkil qildi.

# Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishhajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

45,0 %
Dehqonchilik mahsulotlari



55,0%
Chorvachilik mahsulotlari

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)



## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 73,2 % i– dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 24,7 % i– fermer xo‘jaliklariga,2,1 % i– qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2020– yilning yanvar– dekabr oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Tuproqqal`a tumanida (36,7 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Xiva shaharlarida (100,0 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Xonqa tumanida (4,5 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Yangiariqtumanida (18,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Yangibozor tumanida (65,2 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Tuproqqal’a (0,1 %), qayd etildi.

## Dehqonchilik

2020– yilning yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 7 283,2 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 45,0 % ni tashkil qildi.

## Don

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**
**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan jami 435,5 ming t. don (2019– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 0,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Jami don ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili jami don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 63,3 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



**Xorazm viloyati bo‘yicha don yetishtirish hajmi, t.**



# Kartoshka

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 126,2 ming t. kartoshka (2019– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 0,3 % ga ko‘p) etishtirildi. Kartoshka etishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili kartoshka etishtirish umumiy hajmidan 88,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazmviloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, t.



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 596,2 ming t. sabzavotlar (2019– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 1,8 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 82,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Xorazm viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, t.



# Polizlar

### Hajmi, ming t.




### O‘sish sur’ati




### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 144,1 ming t. poliz mahsulotlari (2019– yilning yanvar– dekabrga nisbatan 3,4 %) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmidan 53,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, t



# Mevalar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 150,8 ming t. mevalar (2019– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 0,8 % ga kam) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 68,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha
## Meva
## Yetishtirish hajmi, t



# Uzum

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 45,0 ming t.uzum (2019– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 4,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 78,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Xorazm viloyati bo'yicha uzum yetishtirish hajmi, t



## Chorvachilik



2020– yilning yanvar– dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 8 896,9 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 55,0 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2020– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 162,0 ming t. go‘sht (2019– yilning yanvar –dekabriga nisbatan 2,1 % ga ko‘p), 1 053,7 ming tonna sut (1,7 % ga ko‘p), 496,8 mln.dona tuxum (3,6 % ga ko‘p), 9,2 ming dona qorako‘l teri (2,9 % ga ko‘p) ishlab chiqarilgan,25 647 t. baliq (60,1 % ga ko‘p) ovlangan.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotningxo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 162,0 ming t.go‘sht (2019– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 2,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Xorazm viloyati bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, t.



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotningxo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1 053,7 ming t. sut (2019– yilning yanvar– dekabrga nisbatan 1,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi.Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,6% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Xorazm viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, t.



# Tuxum

**Hajmi, mln.dona**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotningxo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020– yilning yanvar– dekabroylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 496,8 mln.dona tuxum (2019– yilning yanvar–dekabrga nisbatan 3,6 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi.Tuxum ishlabchiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliktoifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 61,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Xorazm viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

**Hajmi,tonna**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotningxo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 25 647,7 tonna (2019– yilning yanvar– dekabrga nisbatan 60,1 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 63,6 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini ta‘kidlash lozim.



## Xorazm viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, t.



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,7 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 92,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 0,7 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 12,6 % fermer xo‘jaliklariga, 86,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga,0,9 % iqishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi. Otlar umumiy sonidan 10,9 % fermer xo‘jaliklariga, 88,7% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 0,4 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 13,1 % fermer xo‘jaliklariga, 64,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 22,0 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

# Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Boshsoniningxo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qora mollarning umumiy bosh soni 936,1 mingtaga etdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 12,3 mingtaga (1,3 %) ko‘paydi.

2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Xorazm viloyatibo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



# Sigirlar

**Soni, mingbosh**




**O‘sish sur’ati**




**Boshsonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 355,7 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 7,4 mingtaga (2,1 %) ko‘paydi.

2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 92,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



# Xorazm viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra,qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 448,1 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 11,6 mingtaga (2,7 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiyyordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili jami qo‘y va echkilarning 86,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 5,6 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 48 boshga (0,9 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Boshsonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 88,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash lozim.



# Xorazm viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra,parrandalarning umumiy bosh soni 6 072,6 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 107,8 mingtaga (1,8%) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 64,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



# Xorazm viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

- 62-224-64-96
- 71-202-78-89